

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR

JOCAA

VOLUME I, ISSUE 8

МАДАНИЈАТ ВА САНЉАТ

JOURNAL OF CULTURE AND ART

КУЛТУРА И ИСКУССТВО

OCTOBER

2023



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 8-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-8

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-8

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 8 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-8>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович
Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович
Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич
Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна
Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна
Ботирова Хилола
Турсунбаевна

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САҢЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

BOBOMURODOV Bahrom Toshpo‘latovich*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti
“Estrada cholg‘u ijrochiligi” kafedrasining I kurs magistranti**Ilmiy rahbar: UMAROV Sherzod Akbarovich**O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi
MESI “Estrada cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi mudiri
dotsent*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10034182>

BAS GITARA HAQIDA QISQACHA

ANNOTATSIYA

Bas gitara cholg‘usi amaliyotga kirib kelishi barcha turdagi cholg‘ulardan yosh bo‘lsada, uning bugungi kundagi zamonaviy musiqada tutgan o‘rni beqiyosdir. Shu sababli, yoshlar orasida ushbu cholg‘uga qiziqish yildan – yilga oshib bormoqda.

Bas gitara borasidagi ilk nazariy bilimlarni oshirish borasida, aynan o‘zbek o‘quvchilari uchun yozilgan ushbu maqola, barcha qiziquvchilar uchun kerakli manba bo‘ladi degan umiddamiz.

Kalit so‘zlar: bas gitara, tarix, rivojlanish, holat, ijro turlari, bas gitara turlari, sozlanish, Fender, Gibson, slep, tepping, slayd.

КРАТКО О БАС-ГИТАРЕ

АННОТАЦИЯ

Хотя инструмент бас гитара появился позже всех видов музыкальных инструментов, его роль в современной музыке незаменим. Поэтому интерес к этому инструменту среди молодежи растет с каждым годом.

Мы надеемся, что эта статья станет полезным ресурсом для тех кто заинтересован в совершенствовании первых теоретических знаний игры на бас-гитаре.

Ключевые слова: бас-гитара, история, развитие, положение, виды исполнения, разновидности бас-гитар, настройка, Fender, Gibson, слеп, теппинг, слайд.

BRIEFLY ABOUT BASS GUITAR

ANNOTATION

Although the bass guitar instrument appeared later than all types of musical instruments, its role in modern music is irreplaceable. Therefore, interest in this instrument among young people is growing every year.

We hope that this article will become a useful resource for those interested in improving their first theoretical knowledge of playing the bass guitar

Key words: bass guitar, history, development, position, types of performance, types of bass guitars, tuning, Fender, Gibson, slap, tapping, slide.

Tarix. Bas gitara – torli-chertma elektron musiqiy cholg‘u bo‘lib, pastki registrdagi notalarni ijro etish uchun mo‘ljallangan. U asosan barmoqlarda chalinsada, gohida mediator (mizrob) bilan ham ijro etiladi. Ushbu cholg‘u asosan urma-zarbli qurilma bilan birgalikda ritm-seksiya guruhiga kiradi.

Elektrik bas-gitara elektrogitaraga o‘xshab ketsada, korpusi va grifi hajm jihatidan bir oz kattaligi bilan farq qiladi. Klassik bas-gitara 4 ta tordan iborat bo‘lib, uning ko‘p torli boshqa turlari ham mavjud.

XX asrning boshlarida jaz musiqasi rivojlana boshlagani va konsert ijrochiligining turli nuqtalarga ko‘chib ijro etish ko‘payib borgani sari, asosan bas partiyalarini ijro etadigan kontrabas cholg‘usining hajmi hamda ovoz kuchining ko‘tarishi borasidagi fikrlar aynan musiqaning ushbu yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan sozandalarning asosiy muammolaridan biriga aylandi.

1920-1930 yillarda kichik jamoalarning rivojlanishi, ovoz kuchaytirgich texnologiyalarining rivojlanishi bas gitara cholg‘usining ehtiyojini keltirib chiqardi. Ushbu muammoni bartaraf etish borasida musiqiy cholg‘ular ishlab chiquvchi bir nechta firmalar tajriba olib borishni yo‘lga qo‘ydilar va ilk bas gitara cholg‘usining ilk namunalari unchalik mashhurlikga erishmadi [2, B.25].

Misol tariqasida: 1912-1930 yillar oralig‘ida “Gibson” firmasida ishlab chiqarilgan bas-mandolina *Gibson Mando-bas* (Gibson Style J Mando bass), Amerikalik musiqachi va tadbirkor Pol Tutmarkning 1936 yilda ixtiro etgan *Elektron bas Audiovoks № 736* (Audiovox #736 Electronic Bass) kabi mahsulotlarini misol keltirishimiz mumkin.

1951 yilda amerikalik kashfiyotchi va tadbirkor, “Fender” firmasining asoschisi Leo Fender *Fender Telecaster* elektrogitarasi asosida *Fender Precision Bass* nomli bas-gitarani sotuvga chiqardi. Cholg‘u tezda ommalasha boshladi. Uning g‘oyasi va cholg‘uning konstruksiyasi bas-gitara cholg‘usi ishlab chiqaruvchilari uchun standart sifatida tan olindi. 1960 yilda Fender, *Fender Jazz Bass* nomli yanada takomillashgan variantini ishlab chiqdi va ushbu cholg‘u ham birinchi bas-gitaraga nisbatan tezroq ommalashdi.

“Fender” firmasi o‘ziga raqobatchi firmalar yetishib chiqqunga qadar bas-gitara bozorida bir necha yillar yetakchilik qildi. 1955 yilda “Hofner” firmasi (Germaniya) o‘zining skripka shakli ko‘rinishida bo‘lgan “*Hofner 500/1*” nomli elektroakustik bas-gitarani bozorga chiqardi. Ushbu cholg‘u “Beatles” guruhining bas-gitara ijrochisi Paul McCartney tomonidan sevib ijro etilganligi sababli, ommalashishiga katta turtki bo‘ldi [5, B.47]

1960 yillarda rok-musiqaning paydo bo‘lishi bas-gitaraning yanada mushhurlashishiga asosiy sabab bo‘ldi va cholg‘uning rivojlanishiga keng yo‘l ochib berdi. Ladsiz, quloqlarsiz kabi bas gitaraning turlari ixtiro etildi. Shuningdek, bas-gitarada “Tepping”, “Bend” kabi ijrochilik uslublari va faqat bas – gitara ijrochiligiga xos “slep” hamda flajoleta ijrochilik texnikalari rivojlana boshladi.

Ijrochilik holati. Inson hayotiga yangi kirib kelgan barcha unsurlar kabi, bas gitara cholg‘usiga ham musiqachilar tomonidan bepisandlik bilan qaralgan. Lekin u - zamonaviy musiqa ijrochiligida kontrabas cholg‘usining o‘rnini bosishi, ritmik ko‘rinishlarni yanada yorqin ijrosini ta‘minlovchi cholg‘u sifatida ko‘rina boshlagandan so‘ng unga bo‘lgan talab orta boshladi.

Albatta, bas gitara akustik gitaradan: elektr orqali ishlaydi, hajm jihatidan kattaroq va asosan 4 ta yo‘g‘on torlari mavjud kabi jihatlari bilan farq qiladi.

Bas gitarani chalish jarayonida 3 ta klassik holat bor:

1. Cholg‘u ko‘krak balandligida joylashadi. Ushbu holat bas gitara chalishni o‘rganishning klassik maktabi, jaz, blyuz va disko yo‘nalishlaridagi musiqalar, shuningdek slep uslubida chalishda qo‘l keladi [4, B.19].

2. Bel (yoki kindik) balandligida. Cholg‘uda yanada kuchli va aniq tovush chiqarish, o‘ng qo‘lda mediator bilan chalishda qulayligi tufayli ushbu holatdan ko‘proq rok yo‘nalishidagi musiqachilar foydalanishadi.

3. Tizza holati. Slep uchun juda qulay variant bo'lsada, tepping [3] uchun umuman to'g'ri kelmaydi. Ushbu holat ko'proq – o'zlarining sahna imijlarini ko'rsatish maqsadida mashhur musiqachilar orasida uchraydi.

Har qanday bas gitara ijrochisi asosiy ijrochilik qoidalarini o'zlashtirib olgach, kasbiy va amaliy daraja ko'tarilgandan so'ng, yuqoridagi holatlarning barchasidan foydalanish mumkin bo'ladi.

Ijro etish turlari. Mediator (mizrob) bilan chalish – bas gitara ijrochiligida eng keng tarqalgan uslublardan biri. Chalishda mediator qo'llansada, uning jarangida o'zgarish sezilmaydi.

- Pizzicato (pitsikato) – bosh barmoq simga qo'yiladi, ko'rsatkich yoki nomsiz barmoq chertish orqali tovush paydo qiladi. Bu orqali pastroq va yopiq ovoz jarangiga erishiladi.


- Slep – bosh barmoq bilan keskinlik bilan simga urib chalish uslubi. Bu ijro orqali aniq va o'tkir tovush chiqarishga erishiladi. Bu kabi ijro asosan fank uslubidagi asarlarda yoki aksent ijrosini ajratib chalish uchun qo'llaniladi. Slep ijrosi ustalaridan biri Red Hot Chili Peppers guruhining bas gitarachisi ijrosi alohida qadrlanadi.

-Tepping – grifda joylashgan lادلarning chap va o'ng qo'llarda teginish orqali paydo etiladigan tovush turi.

- Slayd – bu glissandoning bir turi bo'lib, aniq bir notaga sirpalib kelish yoki sirpalib chiqish. Unda o'ng barmoq bir bora chertganidan keyin, chap qo'l aniq noataga qarab grifda sirpaladi. Bu orqali o'ziga xos musiqaga joziba beriladi.

- Pull-off – torli cholg'ulardagi ijroning yana bir o'ziga xos turi. Unda chap qo'l barmoqlari bilan lادلarga yengil uriladi va tovush paydo bo'ladi. Ushbu ijroda o'ng qo'l ishlatilmaydi.

Hammer-on – keng tarqalgan texnika turi. Unda bir notani ladga urish orqali uning jarangi bilan boshqa notalarni qolgan barmoqlarda ijro etiladi. O'ng qo'l ishtirok etmaydi [3, B.88].



Pitsikato




Slep




Tapping



Slayd



Pull off



Hammer on

Albatta, bu ijro turlarini birdaniga amaliyotda qo'llab bo'lmaydi. Shu sababli, ushbu uslublarni faoliyatda qo'llash uchun amaliy mashqlar mavjuddir.

Ladsiz bas-gitara va unda ijro etish yo'llari. Ushbu tur - grifida har bir nota tovushlarni alohida belgilab va ularni ajratib turuvchi metall qoplamalar yo'qligi bilan odatiy bas gitaradan farq qiladi. Torlar ostida joylashgan har bir lad alohida nota balandligini belgilaydi.

Ma'lumki, ladsiz gitarada barmoqlar eshitish va lادلarni his etish kabi sezgilar orqali ijro etiladi. Shu sababli, ladsiz bas gitarani chalishdan oldin qaysi nota qaysi bir ladda joylashganini ladli bas gitarada yaxshilab o'zlashtirib olish zarur.

Ladsiz bas gitarada ijro etish yangi o'zlashtirayotgan sozandalar uchun qiyinga o'xshab ko'rinadi. Lekin, ushbu cholg'u turining o'ziga yarasha yengil taraflari ham borki, ular haqida ham alohida gapirib o'tish zarurdir. Masalan: odatiy bas gitaraga nisbatan torlar grifga yaqinroq joylashgan va bu barmoqlarning oson sirpalishi uchun zamin yaratadi hamda qo'llardagi zo'riqishi bir oz kamaytiradi. Shuningdek, kontrabasda tovush chiqarish kabi ijro uslubi bir xil. Bir so'z bilan aytganda, ladsiz bas gitara ijrosi orqali jonli hamda ohangdor jarangga erishiladi [1, B.10].

Ushbu cholg'u turi katta mashhurlikga erishmagan bo'lsada, keyingi vaqtlarda fank va metall yo'nalishidagi ijrochilar orasida uchratish mumkin.



Ladli bas gitara



Ladsiz bas gitara

Bas gitara turlari va ularning sozlanishi. Bas gitara transport qilinadigan cholg'u turiga kirib, yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Musiqaning turli uslublari va musiqalar har – xil dipazonda bo'lganligi sababli, sozandalar o'z cholg'ularini ushbu asarlarga xos ravishda sozlaydilar. Lekin, mi sozi (kontroktava E-mi, A-lya va katta oktava D-re, G-sol) – standart soz hisoblanishini alohida aytib o'tish lozim.

E, A, D, G (*mi-lya-re-sol*) - Standart soz (kontrabas kabi)

Sozlanishning boshqa turlari:

- D# G# C# F# (*re diez-sol diez-do diez-fa diez*) - Barcha torlar yarim tonga tushiriladi
- D G C F (*re-sol-do-fa*) - Barcha torlar bir tonga tushiriladi
- C# F# B E (*do diez-fa diez-si-mi*) - Barcha torlar bir yarim tonga tushiriladi
- C F A# D# (*do-fa-lya diez-re diez*) - Barcha torlar ikki tonga tushiriladi
- C G D A (*do-sol-re-lya*) - To'rtinchi tor ikki tonga, uchinchi tor bir tonga tushiriladi, birinchi tor bir tonga ko'tariladi (violonchel sozi). Ushbu soz turi - skripka, violonchel yoki skripka alt cholg'usidan bas gitara chalishga o'tgan sozandalar tomonidan ko'proq qo'llaniladi.

Shuningdek Dropped (Drop D) deb nomlanuvchi sozlash turi ham mavjud:

- D A D G (*re-lya-re-sol*) - 4- torbir ton tushiriladi, qolgan torlar standart soz bo'yicha sozlanadi.
- C# G# C# F# - 1,2,3-torlar yarim tonga, 4-tor esa bir yarim tonga tushirib sozlanadi.
(*do diez-sol diez-do diez-fa diez*)
- C G C F (*do-sol-do-fa*) - 1,2,3-torlar bir tonga, 4-tor esa ikki tonga tushirib sozlanadi.
- B F# B E (*si-fa diez-si-mi*) - 4-tor ikki yarim tonga, 1,2,3-torlar esa bir yarim tonga tushirib sozlanadi.

Pank uslubidagi musiqalarga odatda (har doim ham emas) torlar ko'tarib sozlanadi:

- F A# D# G# (*fa-lya diez-re diez-sol diez*) - Barcha torlar yarim tonga ko'tarilib sozlanadi
- F# B E A (*fa diez-si-mi-lya*) - Barcha torlar bir tonga ko'tarilib sozlanadi

5 torli bas gitaraning sozlanishi:

- B E A D G (*si-mi-lya-re-sol*) - Standart soz turi (ba'zida 5-tor si notasiga ham sozlanadi).
- E A D G C (*mi-lya-re-sol-do*) - Diapazon kengaytirilgan sozlash turi. Yuqori registrlarda yakkanavozlik uchun qulay sharoit yaratadi.
- C G D A Ye (*do-sol-re-lya-mi*) - Ushbu soz turi ham, avval klassika uslubida ijro etib (masalan: skripka, alt yoki violonchel), keyin bas gitaraga o'tgan sozandala orasida keng tarqalgan. Unda beshinchi tor ikki tonga, to'rtinchi tor – bir tonga tushirib sozlanadi.
- A# D# G# C# F# (*lya diez-re diez-sol diez-do diez-fa diez*) - Barcha torlar yarim tonga tushirib sozlanadi.
- A D G C F (*lya-re-sol-do-fa*) - Barcha torlar bir ton pastga tushirib sozlanadi. Ushbu sozda asosan - Korn va Pantera kabi mashhur guruhlarning bas gitarachilari ijro etadilar.

Olti torli bas gitaraning sozlanishi:

- B E A D G C (*si-mi-lya-re-sol-do*) - Standart soz. Bunda birinchi tor (qo'shimcha) "si" notasiga emas balki, "do" ga sozlanadi.

Shuningdek, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n ikki torli, pikkolo kabi bas gitara turlari ham bor, ularning sozlanishi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ushbu turlar amaliyotda kam ijro etilganligi sababli, ular haqida alohida to'xtalmadik.



Besh torli bas gitara



Olti torli bas gitara

Bas-gitara cholg'usi borasida ko'plab o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalar yozilgan va internetda ko'plab ma'lumotlar topilsada, aynan ushbu mavzuda o'zbek tilida yozilgan ma'lumotlarni topish mushkul. Bugungi kunda ushbu cholg'uga yoshlar orasida qiziqish katta bo'lgani sababli, aynan yoshlar va qiziquvchi o'quvchilar uchun ushbu maqola tayyorlandi. Zero, o'zbek yoshlari aynan ushbu cholg'u haqida asosiy ma'lumotlarni bilish foydadan holi emas.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. А.Nazaryan, G.Israilov “Orkestr sinfi” ўқув қўлланма. Т., 2017 й.
2. К.Новожилов “Бас-гитара в современной музыке: конструкция инструмента и проблема классификации”, статья, Научная электронная библиотека “Cyberleninka”.
3. Е.Барбан “Джазовый словарь”. Изд.: “Композитор-Санкт-Петербург”, 2014.
4. С.Ариевич “Практическое руководство игры на бас гитаре”. М., “Музыка”, 1983.
5. К.Куэрдас “Метод Густаво Грегорио по электрическому басу”. Изд.: “Ricordi”, 1983.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 8-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-8

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-8

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz